

Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq, Davlat statistika qo'mitasi tomonidan 2018 yilning yanvar – marti uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulotni (keyingi o'rinlarda – YaHM) dastlabki baholash ishlari amalga oshirildi.

YaHM – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan vaqt davomida mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi sifatida hisoblanadi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yilning yanvar – martida **Qoraqalpog'iston Respublikasi** YaHM hajmi joriy narxlarda 2 294,2 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 5,8 % ga o'sdi. YaHM ning o'sishi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi – 102,0 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 3,5 %), sanoat – 104,3 % (40,1 %), qurilish – 119,1 % (8,8 %), xizmatlar sohasi – 104,8 % (47,6 %) kabi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liq. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 1 243,5 ming so'mni tashkil etdi va 4,3 % ga o'sdi.

**Andijon viloyati** bo'yicha YaHM joriy narhlarda 3 013,3 mlrd.so'mni tashkil etdi va 8,9 % ga o'sdi. Iqtisodiy o'sish qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 101,7 % (YaHM tarkibidagi ulushi - 7,5 %), sanoatda - 125,6 % (33,6 %), qurilishda – 103,7 % (5,9 %), xizmatlar sohasida – 104,4 % (53,0 %) kuzatilgan ijobiy o'sish sur'atlari natijasida ta'minlandi. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 999,0 ming so'mni tashkil etdi va 7,1 % ga o'sdi.

**Buxoro viloyatida** YaHM hajmi 0,4 % ga kamaydi va 2 599,9 mlrd.so'mni tashkil etdi. YaHM ning tarmoq tarkibida o'sish sur'atlari: qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 103,8 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 11,9 %), xizmatlar sohasida – 104,9 % (51,2 %) ni tashkil etdi. Shuningdek, 2017 yilning mos davri bilan taqqoslaganda sanoatda – 97,9 % (28,6 %) va qurilishda – 76,6 % (8,3 %) hajmlarning kamayishi kuzatildi. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 1,8 % ga kamaydi va 1 388,4 ming so'mni tashkil etdi.

**Jizzax viloyatida** YaHM 2,8 % ga o'sdi va 1 233,3 mlrd.so'mni tashkil etdi. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 100,7 % (YaHM tarkibidagi ulushi - 15,2 %), qurilishda – 100,4 % (11,1 %), xizmatlar sohasida – 105,3 % (54,4 %) ni tashkil etdi. Sanoatda ishlab chiqarish hajmining 1,8 % ga kamayishi kuzatildi. Ushbu tarmoqning YaHM dagi ulushi 19,3 % ni tashkil

etdi. Aholi jon boshiga YaHM hajmi 929,1 ming so'mni tashkil etdi va 0,9 foizga o'sdi.

**Qashqadaryo viloyati** yalpi hududiy mahsuloti 5,1 % ga o'sdi va 4 084,1 mlrd.so'mni tashkil etdi. YaHM ning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liq. Jumladan: qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 100,8 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 6,8 %), sanoatda – 107,0 % (45,9 %), qurilishda – 101,7 % (7,6 %), xizmatlar sohasida – 104,5 % ni (39,7 %) tashkil qildi. Aholi jon boshiga YaHM 3,1 % ga o'sdi va 1 294,9 ming so'mni tashkil etdi.

**Navoiy viloyatida** YaHM o'sishi 3,2 % ni tashkil etdi va 3 859,9 mlrd.so'mga etdi. YaHM tarmoq tarkibida o'sish sur'ati qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 103,2 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 6,5 %), sanoatda – 100,3 % (69,1 %), qurilishda – 112,0 % (4,2 %), xizmatlar sohasida – 108,1 % ni (20,2 %) tashkil etdi. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 1,6 % ga o'sdi va 4 022,0 ming so'mni tashkil etdi.

**Namangan viloyatida** YaHM 2 121,3 mlrd.so'mni tashkil etdi, bu esa 2017 yilning mos davri ma'lumotlariga nisbatan 4,0 % ga ko'pdir. YaHM dagi o'sish sur'ati qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi – 101,4 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 7,8 %), sanoat – 101,5 % (19,4 %), qurilish – 105,6 % (6,8 %) va xizmatlar sohasidagi – 105,0 % (66,0 %) ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liq. Aholi jon boshiga YaHM 2,2 % ga o'sdi va 784,5 ming so'mni tashkil etdi.

**Samarqand viloyatida** YaHM hajmi joriy narxlarda 3 584,8 mlrd.so'mni tashkil etdi va 3,0 % ga o'sdi. Ushbu hududda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 102,0% (YaHM tarkibidagi ulushi – 10,2 %), qurilishda – 106,1 % (6,6 %), xizmatlar sohasida – 105,3 % (58,9 %) ijobiy o'sish sur'atlari qayd etildi. Sanoat tarmog'ida esa, ishlab chiqarish hajmining kamayishi kuzatildi va 2017 yilning yanvar - martiga nisbatan 96,8 % ni tashkil etdi (ushbu tarmoqning YaHM tarkibidagi ulushi – 24,3 %). Aholi jon boshiga YaHM 1,0 % ga o'sdi va 961,9 ming so'mni tashkil etdi.

**Surxondaryo viloyatida** YaHM 6,7 % ga o'sdi va 2 245,1 mlrd.so'mni tashkil etdi. YaHM ning o'sishiga ta'sir qiluvchi omillar bo'lib, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 102,4 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 23,2 %), sanoatda – 141,5 % (12,2 %), xizmatlar sohasidagi – 104,6 % (57,2 %) o'sish sur'atlari xizmat qildi. Qurilishda esa bajarilgan ishlar hajmining 7,8 % ga kamayishi qayd etildi (YaHM tarkibidagi ulushi – 7,4 %). Aholi jon boshiga YaHM 891,1 ming so'mni tashkil etdi, bu esa 2017 yilning mos davri ma'lumotlariga nisbatan 4,5 % ga ko'pdir.

**Sirdaryo viloyatida** YaHM 4,5 % ga o'sdi va 1 019,3 mlrd.so'mni tashkil etdi. Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida ham ijobiy o'sish sur'atlari qayd etildi. Xususan, o'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida –

100,9 % (YaHM tarkibidagi ulushi - 12,3 %), sanoatda - 104,0 % (36,4 %), qurilishda – 106,1 % (6,1 %), xizmatlar sohasida – 105,4 % (45,2 %) ni tashkil etdi. Aholi jon boshiga YaHM hajmi 1 247,5 ming so'mni tashkil etdi va 2,9 % ga o'sdi.

**Toshkent viloyatida** YaHM 5 924,3 mlrd.so'mni tashkil etdi va 6,1 % ga o'sdi. YaHM ning o'sishi hudud iqtisodiyoti tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liq. Jumladan: qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 101,2 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 10,0 %), sanoatda – 106,2 % (51,7 %), qurilishda – 133,4 % (4,0 %), xizmatlar sohasida – 104,7 % (34,3 %) o'sish sur'atlari kuzatildi. Aholi jon boshiga YaHM 4,9 % ga o'sdi va 2 068,2 ming so'mni tashkil etdi.

**Farg'ona viloyatida** YaHM 3,9 % ga o'sdi va 3 761,2 mlrd.so'mni tashkil etdi. YaHM ning o'sishi hudud iqtisodiyoti tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liq. O'sish sur'ati qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 102,2 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 8,2 %), sanoatda – 101,3 % (31,5 %), qurilishda – 111,8 % (6,5 %), xizmatlar sohasida – 104,7 % (53,8 %) ni tashkil etdi. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 1 037,4 ming so'mni tashkil etdi va 2,3 % ga o'sdi.

**Xorazm viloyatida** YaHM 1 858,7 mlrd.so'mni tashkil etdi, bu esa 2017 yilning yanvar - martiga nisbatan 6,1 % ga ko'pdir. YaHM ning o'sishi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi – 100,9 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 12,8 %), sanoat – 117,3 % (25,7 %), xizmatlar sohasidagi – 104,4 % (53,3 %) o'sish sur'atlari bilan bog'liq. Qurilish tarmog'ida esa, bajarilgan ishlar hajmining 1,8 % ga kamayishi qayd etildi (ushbu tarmoqning YaHM tarkibidagi ulushi – 8,2 %). Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 4,5 % ga o'sdi va 1 028,3 ming so'mni tashkil etdi.

**Toshkent shahrida** YaHM 10 502,3 mlrd.so'mni tashkil etdi, bu esa 2017 yilning yanvar - martiga nisbatan 7,2 % ga yuqoridir. YaHM o'sishining asosiy omillari bo'lib, sanoat – 106,5 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 29,9 %), qurilish – 110,6 % (7,8 %), xizmatlar sohasidagi – 107,1 % (62,3 %) ijobiy o'sish sur'atlari hisoblanadi. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 5,3 % ga o'sdi va 4 251,3 ming so'mni tashkil etdi.


**2018 yilning yanvar - marti uchun  
yalpi ichki (hududiy) mahsulot**

	<i>YaIM (YaHM), mlrd. so'm</i>	<i>Aholi jon boshiga YaIM (YaHM), ming so'm</i>
<b>O'zbekiston Respublikasi <sup>1)</sup></b>	<b>64 958,0</b>	<b>1 985,9</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 294,2	1 243,5
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	3 013,3	999,0
Buxoro	2 599,9	1 388,4
Jizzax	1 233,3	929,1
Qashqadaryo	4 084,1	1 294,9
Navoiy	3 859,9	4 022,0
Namangan	2 121,3	784,5
Samarqand	3 584,8	961,9
Surxondaryo	2 245,1	891,1
Sirdaryo	1 019,3	1 247,5
Toshkent	5 924,3	2 068,2
Farg'ona	3 761,2	1 037,4
Xorazm	1 858,7	1 028,3
Toshkent sh.	10 502,3	4 251,3

<sup>1)</sup> *Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda*

Respublika bo'yicha YaIM ning shakllanishida Toshkent shahri 16,2 % ulush bilan eng katta hissa qo'shdi. Toshkent viloyati 9,1 % va Qashqadaryo viloyati 6,3 % ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egallab turibdi. Respublika YaIM ni shakllantirishda eng kam ulush Sirdaryo (1,6 %), Jizzax (1,9 %), Xorazm (2,9 %), viloyatlariga to'g'ri kelmoqda.

**2018 yilning yanvar – marti uchun  
YaIM ni shakllantirishda hududlarning ishtiroki**  
(YaIM ga nisbatan % da)



2018 yilning yanvar – marti yakunlari bo'yicha Andijon viloyati (108,9 %), Toshkent shahri (107,2 %), Surxondaryo (106,7 %), Xorazm (106,1 %) va Toshkent (106,1 %) viloyatlarida yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi. Jizzax (102,8 %), Samarqand (103,0 %), Navoiy (103,2 %) viloyatlarida Respublika darajasiga (105,1 %) nisbatan past o'sish sur'atlari kuzatildi. Buxoro viloyatida

YaHM hajmining (2017 yil yanvar – martga nisbatan 99,6 %) kamayishi qayd etildi.

**2018 yilning yanvar – marti uchun**  
**YaIM (YaHM) o`shish sur'atlari**  
*(2017 yilning yanvar – martiga nisbatan % da)*

	<i>YaIM (YaHM)</i>	<i>Aholi jon boshiga YaIM (YaHM)</i>
<b>O'zbekiston Respublikasi <sup>1)</sup></b>	<b>105,1</b>	<b>103,3</b>
Qoraqalpog`iston Respublikasi	105,8	104,3
<i>viloyatlar.</i>		
Andijon	108,9	107,1
Buxoro	99,6	98,2
Jizzax	102,8	100,9
Qashqadaryo	105,1	103,1
Navoiy	103,2	101,6
Namangan	104,0	102,2
Samarqand	103,0	101,0
Surxondaryo	106,7	104,5
Sirdaryo	104,5	102,9
Toshkent	106,1	104,9
Farg`ona	103,9	102,3
Xorazm	106,1	104,5
Toshkent sh.	107,2	105,3

2018 yilning yanvar – marti yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining YaHM tarkibidagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Surxondaryo viloyatida (23,2 %), sanoatning eng yuqori ulushi Navoiy viloyatida (69,1 %), qurilishning eng yuqori ulushi Jizzax viloyatida (11,1 %),

<sup>1)</sup> *Худудлар бўйича тақсимланмаган маълумотларни қўшиган ҳолда*

xizmatlar sohasining eng yuqori ulushi esa, Namangan viloyatida (66,0 %) kuzatilmoqda.

Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligining YaHM tarkibidagi ulushi boʻyicha eng kam koʻrsatkich Qoraqalpogʻiston Respublikasida (3,5 %), sanoatning eng kam ulushi Surxondaryo viloyatida (12,2 %), qurilishning eng kam ulushi Toshkent viloyatida (4,0 %), xizmatlar sohasining eng kam ulushi esa, Navoiy viloyatida (20,2 %) qayd etildi.

**2018 yil yanvar – mart uchun  
YaHM ning tarmoqlar boʻyicha tarkibi  
(jamiga nisbatan % da)**

